

4
—
2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2023-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2023, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika va psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiv nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahnudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lg‘in Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahnudova Miyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahnudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUNDARIJA

No	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	BAQOYEVA Maftuna Shuxratovna	Maktab o'quvchilari orasida bulling holatlarini o'rganish va uni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	ОЛИМОВ Ширинбай Шарофович	Oliy ўкув юртида лойихага асосланган таълимнинг имкониятлари	14
3.	FAYZIEVA Umida Asadovna	Pedagogik muloqot kasbiy kompetentlikning muhim omili	20
4.	RASULOVA Zilola Durdimurotovna	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullari	24
5.	ALIMOVA Mavluda Adiz qizi	O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslari	30
6.	JABBAROV Anvar Egamovich, AXMEDOV Nurali Odilovich, AXMEDOVA Zamira Odilovna	Autocad dasturi yordamida chizma geometriya masalalarini yechishning afzalliklari	34
7.	MIRZAKULOVA Nodira Ibragimovna	Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining pedagogik amaliyotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	40
8.	AKOBIROVA Madina Bo'ronovna	Texnologiya fani o'qituvchisidagi muloqotchanlik madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
9.	RO'ZIEV Rustam Ro'zimurodovich	Yong'in xavfsizligi madaniyatini masofaviy o'qitish bo'yicha elektron metodik ta'minotini yaratish	52
10.	SULTONOV Akram Ikromovich	O'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berishda sharq va g'arb mutafakkirlari ilmiy merosidan foydalahish	59
11.	TURAYEVA Oygul Siroj qizi	Iven texnologiyasi vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish metodikasini takomilashtirish	63
12.	TURDIEVA Roza Sultanmuratovna	Challenges and strategies for promoting transformational learning and critical thinking in online education in the uzbek higher education system	68
13.	XUDAYBERDIYEV Oybek Gafurovich	Umumta'lim maktabi o'quvchilarida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning refleksiv modeli	73
14.	XUDOYBERDIYEVA Sitora Nizomiddin qizi	Modulli texnologiya asosida ixtisoslik fanlaridan o'quv materiallarini ishlab chiqish	78
15.	XUDOYQULOVA Gulshoda Baxronovna	O'quvchi shaxsiga psixologik xizmat ko'rsatishning ilmiy va amaliy imkoniyatlari	85
16.	ZARIPOV Nozimbek Nayimovich, YAXYAYEVA Shoiraxon Toxirboevna	Enhancing students' creative abilities through computer graphics	90
17.	LUTFULLAEV M.X., DJABBAROV B.B.	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida imitatsion modellardan foydalanish kompyuter malakasini	95

Шуннингдек, бошлангич мактаб ўкувчиларида хаётий аҳамиятта эга бўлган онг ривожланади деган таълимотдан келиб чишиб, бошлангич синф ўқитувчининг асосий вазифаси боланинг ички дунёсини қамраб олиш, унда идрок этиши истагини уйготиш, материал, ундан қандай фойдаланишини ифодалайдиган ўкув мотивацияси шаклланишини таъминлади. Кичик мактаб ёшидаги ўкувчиларнинг ўкув мотивациясини ривожлантириш учун ўқитувчига керак:

- ёш ўкувчининг изходий салоҳиятини ривожлантиришга кучли таъсир кўрсатиш;
- ҳатто у бир карашда бу муҳим эмасдек туъзласада, ҳар бир ўкувчи фаолиятининг аҳамиятини ва ютукларини таъкидлаб ўтиш;
- болани кўришга, тарбиянинг айрим жиҳатларини тан олишга ўргатиш орқали ўқини ва меҳнат фаолиятини уларни мавжуд когнитив эҳтиёж билан боғлаш;
- ўкувчини ўкув фаолиятида максад кўйиншга ўргатиш;
- болага шартларни таҳдил қилиш, муҳокама қилинганда иштирок этишга ундаш ва узвий максадга эришиш йўлларини топиш;
- муаммонинг ечимида қидирав фаолиятининг ролини кучайтиришга эътибор қаратиш орқали ўкувчиларнинг ўрганилаётган ҳодисаларни чукур ўрганишга йўналтириш;
- муаммоли вазиятларда сабаб-оқибат муносабатларини таҳдил қилиш ва изходий фаолиятни фаоллаштириш.

Хулоса. Изюбий таълим мотивациясини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у ҳар бир боланинг изходий салоҳиятини ривожлантиришга изюбий таъсир кўрсатишга онд ўқитувчининг вазифаларидан бири сифатида - кичик ёшдаги болаларнинг изходий фаолиятини бошқариш мактаб ўкувчилари, яъни уларнинг максадли ўрганишга нисбатан доимий мотивациясини шакллантириш орқали уларнинг ўқиншга, билим олишга бўлган иштиёқни, ўзига ишончини кучайтириш ва ички табиий кучлари ҳамда қобилиятларини ривожлантириш. Шу билан бирга, оғзаки-коммуникатив, восита-манипулятив ва график воситалар асосида ўкувчилар биргаликда ишлаши муҳим саналади.

Адабиётлар:

1. Адизов Б.Р.Бошлангич таълимни изходий ташкил этишининг назарий асослари. Тошкент: Фан, 1997.-182-б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.-Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006. -167 б.
3. Каримова В. Психология.-Т: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 2002.-206 б.
4. Каримова В.М. Суннатова Р. ва бошқалар. Мустакил фикрлаш. Академик литејлар ва қасб-унар коллежлари учун ўкув кулланма.- Т.: Шарқ, 2000.- 112 б.
5. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. 2022. Т. 1. №. 4. С. 459-464.
6. Каршибоева Г.А. Ўсмирларнинг ҳулк-авторидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жиҳатлари //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2022. Т. 2. №. 4.
7. Каршибоева Г.А. Ўкувчиларда қасбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жиҳатлари //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2022.Т. 2, №. 4.
8. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси.Ўкув кўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
9. Каршибаева Г. А., Абдуасолов Р.А.Психологик маслаҳат. Ўкув кўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
10. Мунавваров А. К. Оила педагогикаси.-Т.: Ўқитувчи,1994.- 127 б.
11. Рубинштейн Л. С. Психология личности.-М.: Просвещение,1991.-237
12. Немов Р.С. Психология: Учебн.пособия для учащихся пед . училищ, студентов пед. ин-ов, и работников системы подготовки, повышения квалификации и переподготовки пед. кадров. -М.: Просвещение, 1990.- 301 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LINGVISTIK
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Omonova Dildora Nekmurod qizi,

Buxoro davlat universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasи

tayanch doktoranti

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida nutq tovushlarining to‘g‘ri talaffuz qilinishi turli voqealarni o‘z nutqida bayon qila olishi, so‘zlarga so‘roq berish va shunga o‘xshash grammatik tushunchalarni amaliydan nazariy bilimlar sifatida o‘rganishi, shuningdek nutqiy va lingvistik kompetensiyalarining shakllantirish bo‘yicha mulohaza yuritilgan. Shuningdek, maqolada milliy o‘quv dasturi asosida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarining ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘rni va ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘quv dasturi, ona tili va o‘qish savodxonligi, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, sodda birikma, kompetensiya turlari.

**ФОРМИРОВАНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

В данной статье рассматривается правильное произношение звуков речи в начальной школе на родном языке и уроках грамотности чтения, умение описывать различные события в собственной речи, вопросительные слова и подобные грамматические понятия от практических до теоретических знаний, а также комментарии к формированию речевых и языковых компетенций. Также в статье рассматриваются роль и значение речевых и языковых компетенций на занятиях по родному языку и грамотности чтения на основе национальной учебной программы.

Ключевые слова: национальная учебная программа, родной язык и грамотность чтения, языковая компетенция, речевая компетенция, простое сочетание, виды компетенции.

FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS.

In this article, the correct pronunciation of speech sounds in elementary school mother tongue and reading literacy classes, the ability to describe various events in one’s own speech, questioning words and similar grammatical concepts from practical to theoretical knowledge as well as comments on the formation of speech and linguistic competences. The article also discusses the role and importance of speech and linguistic competences in mother tongue and reading literacy classes based on the national curriculum.

Key words: national curriculum, mother tongue and reading literacy, linguistic competence, speech competence, simple combination, types of competence.

Kirish. Dunyo bo‘yicha o‘qituvchilarning samarali faoliyatga erishishning innovatsion mehanizmlari hamda ularning kasbiy kompetentligini, muloqot madaniyatini rivojlantirishga asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarbdir.

Ona tili o‘qitish bo‘yicha ta’lim jarayonida o‘qitishga motivatsion yo‘naltirilgan o‘quv muhitini yaratish hamda ularda muloqot qilishning samarali usullarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchilarda kasbiy mahorat hamda kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy masaladir. YUNESKO tomonidan belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning aniq maqsadlari doirasida ta’limga oid dasturlarni takomillashtirish, ularning ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, nutqini o‘stirish, ijodkorlik salohiyatini oshirish, innovatsion o‘qitish metodlarini amaliyotga tatbiq etish, ta’lim resurslarini modernizatsiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchiga fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalarni ham shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan hisoblanadi.

Ma‘lumki, har bir fanni o‘zlashtirish, avvalo, ona tilimiz orqali amalga oshadi. Hattoki, oila davrasida bo‘ladimi yoki jamoat joyidami har bir inson o‘z ona tilida muloqot qilishga ehtiyoj sezadi. Va aynan kishining muomalasi va nutq madaniyati o‘scha shaxs uchun ma‘lum baho berilishiga sabab bo‘ladi. Demakki, ta’lim maskanlarida ona tili darslarida, eng avvalo, o‘quvchilarning nutqiy muloqot

kompetensiyasiga alohida ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu borada kompetensiyaviy ta’limni amalga oshirish lozim. Kompetensiya (lotincha so’z bo’lib, “erishaman”, “to’g’ri kelaman” ma’nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo’yish hamda unga crishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog’liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir [1].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – bu o’quvchilarda egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta’limdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limdan maqsad esa o’quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir [2].

Kompetensianing turlari juda ko’p. Biroq lingistik kompetensiyani rivojlantirish hamon dolzarb masala bo’lib kelmoqda. Chunki yaxshi nutq va samarali muloqot nutq vaziyatini to’g’ri yuzaga chiqarishdagi bosh omillardan hisoblanadi. Buning esa umumta’lim maktabi o’quvchilari uchun ham ahamiyati kattadir. Lingistik ko’knikmalarni shakllantirish turli mavzularda berilgan mashqlar mazmuniga singdirilgan bo’lib, ular o’quvchilardan atrofni kuzatishni, fikrlarini tizimlashtirishni va xulosa chiqarishni talab etadi. Xususan, “Tog’ o’rmonlari va o’tloqlari” mavzusidagi matnda tog’larda dam olish yoki turistik poxodlar vaqtida tabiatni asrab-avaylash zarurligi; daraxtlarga zarar yetkazish, shox-novdalarni sindirish, gullarni yulib dastalash, qushlar bilan hayvonlarni bezovta qilish mutlaqo yaramasligi; o’rmonda gulxan yoqish mumkin emasligi, chunki ulardan ko’pincha yong’in chiqib, inson uchun qimmatli bo’lgan o’simliklarga emas, balki hayvonlar ham nobud bo’lishi haqidagi fikrlar mujassam. O’quvchilarga sayohatlar chog’ida ularni diqqat bilan kuzatib borish, fotosuratini olish va shu asosda matn tuzish, taassurot yoki esselar yozish vazifasini berish mumkin. Demak, lingistik ko’nikmalarni shakllantirish harflarni to’g’ri talaffuz etish va yozish, so’zlarni to’g’ri o’qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o’qish; gapdagi tinish belgilaringin talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo’lgan ayrim grammatik vositalarni o’z o’rnida qo’llay olish, xalq og’zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalardan olingan parchalarni o’qib tushuna olish kabi talablarni o’z ichiga oladi.

“Lingistik kompetensiya – haqidagi bilimlar majmuuni til birliklari va bunday birliklardan foydalanish qobiliyati odamlar o’z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunishlari uchun foydalanishlarini anglatadi”. Lingistik kompetensiya “o’quvchining til bo’limlari bo’yicha oлган bilimlari, ularni amaliyot bilan bog’lash ko’nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir”. Ko’rinadiki, har bir ta’rifda o’ziga xos qarashlar o’z ifodasini topgan bo’lib, ularda masalaning mazmun-mohiyati bo’yicha ma’lum mushtarakliklar mavjud. Fikrimizcha, lingistik ko’nikmalar matnni o’qish, ajratilgan qismlarini tahvilga tortish, gap bo’laklarining ifodalaniishi, uning turlarini aniqlash asosida o’quvchilarining til sathlari bo’yicha egallagan bilimlarini tushunish, umumlashtirish, tizimlashtirish, xuloslash tarzida amalga oshira olish qobiliyatidir. Binobarin, ko’nikma tushunchasiga berilgan ta’rifda ham aynan “insонning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati, amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo’llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismi, faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish hamda hamisha bilimlarga asoslanishi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanishi” qayd etilishi beziz emas. Yuqoridaqilardan ko’rinadiki, lingistik ko’nikmalarni shakllantirishga doir malaka talablari negizida til hodisalarini integratsiyalab o’rgatish ehtiyoji mavjud. O’quvchilarining lingistik ko’nikmalarini shakllantirish uchun quyidagicha vazifalar qo’yish maqsadga muvofiq: 1. Frazeologik birlıklar ma’nosи va obrazli modelini aniqlash. Ish bilan band bo’lgan ari sifatida ishlang. – Ho’kizga o’xshab ishlang. Tinimsiz ishlang. Yuzma-yuz. 2. Qadimgi mifologiya, tarix va adabiyot bilan bog’liq ushbu frazeologik birlıklarning o’zbekcha ekvivalentini bering. Ularning ma’nosи va ichki shaklini aniqlang. 3. Inglizcha frazeologik birlıklarning kelib chiqish manbasini toping. 4. Frazeologik iboralarning har biri ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega. Ularni ikkita ustunga yozing: haftasiga yetti juma; osmonga yetti mil; qiya burchak ostida o’sish; mil uzoqlikda bo’lish va h.k [3].

Boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi darsliklarida o’quvchining egallagan bilim, ko’nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo’llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, bugungi kunda milliy o’quv dasturiga asosan boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi darslarini chiziqli tartibda emas, balki spiralsimon shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darslarni bunday shakllantirishdan asosiy maqsad, mavzularning takroran emas, balki ketma-ket izchillikda davom ettirib hamda soddadan murakkabga yo’naltirilgan tarzda o’tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda o’quvchiga tilni o’rgatish orqali shu til bo’yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning to’rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish o’qish va yozish amallari bo’yicha har bir sinfda taqazo etiladigan malaka va ko’nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o’qish hamda yozish jarayonida har bir sinfda tashkil etiladigan malakalar me’yorini rivojlantirish o’qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat

joylarida yuzga keladigan turli xil vaziyatlarda mustaqil ravishda o‘z fikrini bayon qila olishi hamda mustaqil fikrlay olishi, shuningdek, turli xil axborotlarni o‘qib, ulardan ma’lumot olishi, turli xildagi voqealodisalarga o‘z munosabatini bildirishni nazarda tutadi.

Ona tili fani nafaqat leksik va grammatic me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri qo’llay olish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo’llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir.

O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tili fanini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni ham, albatta, qoniqarli o‘zlashtirgan bo‘ladi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganiyotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo’llay olish layoqati rivojlantiriladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga mo’ljallangan bo‘lib, bu o‘quvchining ushbu darslarda egallaydigan lingvistik bilimlar vositasida kundalik turmush, ijtimoiy madaniy hayat, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta’minalash asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda darsliklarda berilgan topshiriqlar, asosan, o‘quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan. Agar o‘quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, ijodiy yondasha olmasligi, uning o‘qish savodxonligida nuqsoni borligini anglatadi. Bugungi kundagi “Ona tili va o‘qish savodxonlig” darsligida til o‘qitishning o‘rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumdan foydalilanildi. Bu yondashuv tilning real hayatiy vaziyatlarda qo’llanish va ana shu vaziyatlarda o‘rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi.

Jumladan, bugungi kunda yaratilgan darsliklarning asosiy maqsadi, bosh g‘oyasi ham o‘quvchilarning ijodkorligiga, ularning mustaqil fikrlashiga qaratilgan. Bunda yuqorida fikrlarni asos qilib olinishi hech kimga sir emas. Hozirda ko‘rib chiqadigan 3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi ham o‘quvchidan kreativ fikrlashni dars davomida va darsdan tashqari ham turli sohalarda o‘z ona tilida ravon so‘zlashi, so‘z boyligining oshirishi, tilni amaliyotda qo’llashi; o‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli o‘qiy olishi barcha uslubdagi fanlar bilan tanishishi va ularni fanlararo integratsiyada o‘rganishi, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqealodisalarni kuzatish, anglash, qiyosiy tahlil qilish, analiz va sintez qilish orqali ijodiy tafakkuri va fikrlash doirasi shakllantirib boriladi. Darslikning 55-betida, 5-mavzusida berilgan “G‘aroyib bolalar” deb nomlangan matn berilgan bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan doskada mavzu yoziladi va o‘quvchilarga mavzuga kirishib olishlari uchun turli savollar beriladi. Dastlab mavzu tushunarli bo‘lishi uchun “5 yoshda 500 ta kitob” audiomatn eshittirladi. Bu orqali o‘quvchida bevosita matnni tinglab tushunish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Shundan so‘ng matnni og‘zaki suhbat quriladi.

1. Iste’dodli bolalar tanlov g‘olib bo‘lgan bolakay qayerda yashayd? Bu davlat haqida nimalar bilasiz?

O‘quvchilar matnda eshitgan ma’lumotlar asosida ushbu savolga javob beradilar. Berilgan javoblarga izoh talab qilnadi. Agar o‘quvchi javob berishda adashsa, nima uchun shunday javob bergan so‘raladi. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchilardan esa javobni qanday qilib bilib olgan haqida so‘rash lozim. Bizning yurtimizda ham yosh iqtidorli o‘quvchilarni bilasizmi? Sizning sifringizda ham shunday o‘quvchilar bormi? Yaxshi o‘qib bilimli bola bo‘lish uchun nimalar qilish kerakligi haqida savollar beriladi?

Shundan so‘ng hikoyaning bosh qahramoni Lev Bondarenko haqida so‘z boradi.

2. Lev Bondarenkon unchalik qiziqtirmaydigan narsalar nima?

Savolga javob berishda o‘quvchilar matnda ochiq holatda berilgan ma’lumotni aytib berishlari lozim. Bu jarayon o‘quvchilarning hayat tarzlar bilan bog‘lab ham olib borish mumkin.

3. Bolaning qiziqishlar haqida nimalarini bilib oldingiz?

Matn asosda javob beriladi. O‘quvchilar ham o‘z qiziqishlar haqida gapirib berishlari mumkin. O‘z qiziqqan ishlarni shug‘ullanishning maroqli tomonlar haqida suhbat quriladi.

4. Ayting-chi, Levning mashhur bo‘lishga eng asosiy sabab qaysi?

Ushbu savolga javob berishda Levning onasi undagi mutolaaga bo‘lgan qiziqishni erta aniqlagan hamda uni rivojlantirib borishga yordam bergan alohda ta’kidlanadi. Bundan tashqari, bolaning har bir qiziqish javobsiz qolmasligi kerakligi haqda suhbat quriladi.

Bu savollardan so‘ng o‘quvchilar matnni tinglab undan nima tushunganliklarini bilish maqsadida turli xildagi topshiriqlar beriladi. Topshiriq bajarilgach, berilgan ma’lumotlarni o‘quvchilar bilan birligida muhokama etish kerak. Noto‘g‘ri deb topilgan ma’lumotlar aslida qanday ekan so‘raladi. Bunda topshiriqning qaysidir qismini xato bajargan o‘quvchi uni nima uchun xato bajarganini tushunib olishga yordam berish kerak. Topshiriqlar bajarilgach o‘quvchilarga darsni mustahkamlash uchun topshiriqlar beriladi.